



## XALQ DEPUTATLARI SHOVIOT TUMANI KENGASHI QARORI

2022 - yil 24 - oktabr

VI-63-175-12-177-K/22

Shovot tuman hokimligi

### **Shovot tumanidagi ayrim mahalla fuqarolar yig'inlari nomlarini o'zgartirish to'g'risida.**

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda*), “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 17-son, 219-modda*) va “Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida”gi (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011 y., 41-son, 448-modda*) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktabrdagi “Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob'ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012y., 41-42-son, 483-modda*), Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son Qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risida”gi Nizomi (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 10-son, 107-modda; 2017 y., 35-son, 931-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2019 y., 09/19/302/2924-son;*) ijrosini ta'minlash, shuningdek geografik ob'ektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida xalq deputatlari Shovot tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o‘rinbosari Geografik ob‘ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2022-yil 15-sentabrdagi bayoniga asosan hamda Shovot tumani geografik ob‘ektlarni qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi xulosasi va ekspert komissiyasi xulosasi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o‘zgaradigan geografik ob‘ektlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri xizmati, tuman qurilish bo‘limi, tumandagi nomi o‘zgargan fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda, tuman bo‘yicha tasdiqlangan yagona zamonaviy milliy dizayn asosida bir oy muddatda geografik ob‘ektlar nomlari qayd qilingan peshlavhalarni o‘rnatsin.

4. Belgilansinki, geografik ob‘ektlar nomlari qayd qilingan peshlavhalarni o‘rnatish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

5. Ushbu qaror qabul qilinishi bilan xalq deputatlari Shovot tuman Kengashining 2016-yil 25-iyuldagi “Shovot tumanidagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risida”gi 16-64-sonli Qaroriga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

6. Tuman hokimligining axborot xizmati bo‘limi (S.Yo‘ldoshev) tuman hokimligi bosh yuriskonsulti bilan hamkorlikda (Y.To‘xtaboyev);

mazkur qarorni tuman hokimligining shovottuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda ushbu qarorning mazmun mohiyatini aholiga tushintirish ishlarini olib borsinlar.

7. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Quranbayev hamda ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (G‘.Ollamov)ga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Shovot tuman  
Kengashi deputati, sessiya raisi**



**U.Ruzmetov**

Xalq deputatlari Shovot tuman  
Kengashining  
2022 yil 24 oktabrdagi  
VI-63-175-12-177-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Tuman hududidagi nomlari o'zgartirilayotgan mahalla fuqarolar yig'inlari**

<b>№</b>	<b>Mahallaning amaldagi nomi</b>	<b>Mahallaning yangi nomi</b>
1.	“Komiljon Otaniyozov”	“Komiljonota”
2.	“Ostona”	“Komiljon Otaniyozov”